

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida:
UO‘K: 657.6:368.03(575.1)

KUVATOVA DINARA ANVAROVNA

**SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA DAROMADLAR VA XARAJATLAR
HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit”

**Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini
olish uchun tayyorlangan**

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
professor I.K. Ochilov**

Toshkent - 2025

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB	SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI..	12
1.1	O‘zbekiston iqtisodiyotida sug‘urta tashkilotlarining tutgan o‘rni, ularning rivojlantirish istiqbollari.....	12
1.2	Sug‘urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni tan olishning konseptual asoslari va buxgalteriya hisobidagi muammoli jihatlari.....	25
1.3	Sug‘urta zaxiralarini investitsiya obyektlariga joylashtirish va undan olinadigan daromadlarni hisobga olishning nazariy-huquqiy asoslari....	33
	I bob bo‘yicha xulosa.....	46
II BOB.	SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA DAROMADLAR VA XARAJATLARNI HISOBGA OLISHNING AMALIY HOLATI VA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA UYG‘UNLASHTIRISH MASALALARI....	48
2.1	Sug‘urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni turkumlanishi va ularning hisobini hozirgi holati.....	48
2.2	Sug‘urta tashkilotlarida daromadlarni hisobga olishning amaliy jihatlari va uni takomillashtirish.....	56
2.3	Sug‘urta tashkilotlarida xarajatlarni hisobga olishning amaliy jihatlari va uni takomillashtirish.....	75
2.4	Sug‘urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olishning xalqaro tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llashda vujudga keladigan muammolar.....	96
	II bob bo‘yicha xulosa.....	102
III BOB.	MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TALABLARI ASOSIDA DAROMADLAR VA XARAJATLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH	104
3.1	Sug‘urta tashkilotlarida daromadlar hisobining xalqaro tajribasi va uni takomillashtirish yo‘llari	104
3.2	Sug‘urta tashkilotlarida xarajatlarni MHXS asosida tan olish va uning hisobini takomillashtirish.....	117
	III bob bo‘yicha xulosa.....	126
	XULOSA.....	128
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	130

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sugʻurta tashkilotlarining oʻrni va ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu oʻzgarishlar dunyodagi global xavf-xatarlar, iqtisodiy noaniqlik, ekologik muammolar va ijtimoiy ehtiyojlarning ortishi bilan bogʻliqdir. Avvalo, soʻnggi yillarda tabiiy ofatlar, pandemiyalar va kiberxavflar kabi global xatarlar soni va taʼsiri oshib bormoqda. Bunday vaziyatlarda sugʻurta tashkilotlari jamiyatning moliyaviy barqarorligini taʼminlashda markaziy oʻrin tutadi. Iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashda sugʻurta tashkilotlari muhim ahamiyatga ega. Ular kichik va oʻrta biznesni himoya qiladi, yirik korxonalarni qoʻllab-quvvatlaydi hamda kredit tizimida ishonchli kafolat vazifasini bajaradi. Bu esa sugʻurta bozorining yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushini oshirishga xizmat qiladi. Sugʻurta xizmatlarining rivojlanishi aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga va investitsiya muhitini yaxshilashga hissa qoʻshadi”¹.

Jahonda sugʻurta tashkilotlari buxgalteriya hisobi konsepsiyasi va metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularda buxgalteriya axborotlarining haqqoniyligi va moliyaviy barqarorlikka taʼsiri, MHXSning joriy etilishi, reyting koʻrsatkichlari hamda baholash standartlarining takomillashuvi oʻrganilmoqda. Shunga qaramasdan, sugʻurta tashkilotlarida toʻlov qobiliyatini oshirish, hisob siyosati va moliyaviy hisobotni xalqaro talablarga mos ravishda yuritish, xarajat va daromadlarni tan olish kabi masalalar hanuzgacha toʻliq yechimini topmagan. Bu muammolarning

¹ Geneva Association. The Socio-Economic Role of Insurance: An Industry Perspective. Zurich: Geneva Association, 2020. – <https://www.genevaassociation.org/research-topics/socio-economic-role-insurance>

yetarlicha o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan sug'urta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqish, unga MHXSni amaliy jihatdan tatbiq qilish hamda uning talablari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish va konsolidatsiyalash, sug'urta faoliyatining daromad va xarajatlarini tan olish va sug'urta tashkilotining moliyaviy potensialini aniqlash, "sug'urta tashkilotining reyting ko'rsatkichlarini aniqlash uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda"². Sug'urta bozorini rivojlantirish jarayonida tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, daromad va xarajatlarni shaffof hisobga olish hamda ularning bozordagi nufuzini baholash mezonlarini yangilash orqali reyting ko'rsatkichlarini aniqlash uslubiyoti takomillashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi VM-507-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, shuningdek, buxgalteriya hisobiga tegishli bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-avgustdagi PQ-5217-son "Sug'urta bozorini isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – lex.uz.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobining nazariy hamda uslubiy asoslari xorijlik olimlar Doron Nissim, Liu J., Nissim D., Thomas J., Mwangi Caleb Muya, Yigit Bora Senyigit, Kamanda Morara ilmiy ishlarida keng yoritilgan³. MDH mamlakatlari olimlari, xususan, S.V. Kulikov, O.S. Gorodetskaya, I.A. Julega, E.V. Reznikova, K.V. Repina, I.N. Shvetsova, N.N. Kuzminov, G.V. Chernova, R.T. Yuldashev, E.A Mamedov, O.A. Mozolkina, V.I. Petrov, A.Yu. Petrov, G.A. Skachko, T.Yu. Rinchinoning ilmiy ishlarida sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va tahlilning ayrim yo‘nalishlari tadqiq etilgan⁴.

³ Doron Nissim Analysis and valuation of insurance companies. Center for Excellence in Accounting & S e c u r i t y Analysis. November 2010. Cash flow king in valuations? Financial Analysts Journal, 63, 56-68. 2007. A r e s e a r c h project submitted in partial fulfilment of the requirements of the award of the degree of master of b u s i n e s s administration university of Nairobi-2013, The Implementation of IFRS in the Turkish Insurance I n d u s t r y , <https://www.sciencedirect.com/>, Kamanda Morara, Athenia Bogandi Sibindi. Determinants of F i n a n c i a l Performance of Insurance Companies: Empirical Evidence Using Kenyan Data. Journal of Risk & F i n a n c i a l .

⁴ Куликов С.В. Финансовый анализ страховых организаций: учебное пособие / С.В. Куликов. О Ростов н/Д.: Феникс, 2009. О 224 с., Анализ и совершенствование системы страхования организаций: Монография / Городецкая Ольга Станиславовна – М.: Lennex Corp, — Подготовка макета: Издательство Нобель Пресс, 2013. – 176 с, Жулега И. А. Методология анализа финансового состояния предприятия: монография / И.А. Жулега; ГУАП. — СПб., 2006. — 235 с., Резникова Е.В. Оценка финансовой устойчивости страховых организаций.//”Экономика и социум” №1(14) 2015. с. 342-347. www.iupr.ru, Репина К.В. Оценка финансового состояния страховой компании по данным МСФО-отчетности.//Журнал —Успехи современного естествознания, №12, 2014. с. 95-96., Швецова И.Н., Пашкевич М.А. Анализ и управление финансовым состоянием страховой компании.//«Экономика и социум» №2(33) 2017. с.8 www.iupr.ru, Кузьминов Н.Н. «Особенности бухгалтерского учета в страховых компаниях», Изд. Второе, Анкил, Москва 2000г , Страхование: экономика, организациа, управление: Учебник; В2

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil sohasida tadqiqot olib borgan olimlar A.A. Karimov, N.F. Karimov, A.X. Pardayev, R.D. Do'smurotov, M.Q. Pardayev, B.I. Isroilov, K.B. Axmadjonov, A.J. To'ychiyev, Sh. Ilxamov, E.F. Gadoyev, A.Z. Avlaqulov, A.K. Ibragimov, K.B. O'razov, S.Tashnazarov, N.B. Abdusalomova, M. Po'latov, B.Yu. Maxsudov, R. Xolbekov, B.A. Xasanov, B.B. Alimov, M. Abduraimova va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini yoritilgan bo'lib, sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning ayrim nazariy jihatlarini qisman o'z aksini topgan⁵.

т./СПбГУ, Подред. Г.В.Черновой. Т.1. С.751, Т.2. С.671– М.: ЗАО —Издательство —Экономика, 2010 г.

⁵ Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit. Monografiya. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 152 b.; Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit: Monografiya. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2006. – 262 b.; Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi / Darslik – T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2014. – 396 b.; Dismurotov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: Yangiyl polygraph service, 2007 y. – 352 b.; Pardayev M.Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari: Iqt.fan.dok. dis. avtoref. – Toshkent: O'z.R BMA, 2002. – 43 b.; Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – Samarqand, 2001 y.; Tuychiyev A.J. Majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolari. Dis... iqt.fan.d-ri. – T., 2011; Hasanov B.A. Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. – T.: Moliya, 2003 y. – 248 b.; Mahsudov B.Yu. Boshqaruv hisobida byudjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. diss. avtoreferati. – T.: TMI, 2018; Isroilov B.I. Soliqlar hisobi va tahlili: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. – T.: O'zbekiston, 2006; Po'latov M.E. Intellektual kapital hisobi va tahlili: nazariya va amaliyot masalalari. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2012. – 166 b.; O'razov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. Monografiya. – T.: Fan, 2005. – 236 b.; Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish // Monografiya. – Samarqand, 2006. – 271 b.; Abduganiyev A.A. Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari, ularning yechimlari. – T.: TMI, 2003. – 275 b.; Avlokulov A.Z. "Moliyaviy natijalar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish" Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2019 y. – 72 b.; Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va byudjetlashtirish uslubiyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati; Amaliy boshqaruv hisobi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / A.K. Ibragimov, B.A. Hasanov, N.K. Rizaev. – T.: "Moliya", 2014. – 404 b.; Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobining metodologik asoslari // Monografiya. – T.: Fan, 2006. – 172 b.